Yaylov xo‘jaligi yo‘nalishida Sh.K. Narbaev va M.M. Yaxyayev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda yaylovlardan foydalanish samaradorligini oshirishning iqtisodiy-uslubiy asoslari ishlab chiqilib, resurslardan foydalanishda boshqaruv tizimini takomillashtirish zarurligi asoslab berilgan.

Xorijiy adabiyotlarda yaylov resurslarini boshqarish asosan ekologik barqarorlik va iqlim o‘zgarishiga moslashuv nuqtai nazaridan o‘rganilgan. David M. Stafford-Smith yaylov tizimlarini iqlim o‘zgarishiga moslashtirish bo‘yicha adaptiv boshqaruv modelini taklif etib, GIS va masofaviy monitoring texnologiyalarining ahamiyatini asoslab bergan.

Karl Havstad yaylov ekotizimlarining iqtisodiy qiymatini baholash metodologiyasini ishlab chiqib, ekotizim xizmatlarini iqtisodiy qarorlar tizimiga integratsiya qilish zarurligini ko‘rsatgan.

Jean-François Soussana esa yaylovlarning uglerod balansidagi rolini o‘rganib, ularning iqlim siyosatidagi strategik ahamiyatini ilmiy asoslab bergan.

Markaziy Osiyo mamlakatlari tajribasida yaylovlardan foydalanish ko‘proq institutsional va hududiy yondashuvlar asosida rivojlanmoqda. Mukhtarbay Abdiev yaylovlarni rotatsion tizim asosida boshqarish orqali resurslardan samarali foydalanish imkoniyatlarini ko‘rsatgan [6]. Ainura Toktomambetova esa jamoaviy yaylov boshqaruvi modelini ishlab chiqib, mahalliy foydalanuvchilar ishtirokini kuchaytirish orqali institutsional barqarorlikni ta’minlash mumkinligini asoslab bergan.

Shuningdek, Z. Nazarova tomonidan ishlab chiqilgan matematik-iqtisodiy model yaylov resurslarini raqamli nazorat qilish orqali samaradorlikni oshirish imkonini koʻrsatadi. B. Mamatqulov esa biomelioratsiya usullari orqali yaylov degradatsiyasini kamaytirish va ekologik barqarorlikni taʼminlash mumkinligini ilmiy asoslab bergan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni koʻrsatadiki, yaylov yerlaridan foydalanish muammolari iqtisodiy, ekologik va institutsional omillar bilan chambarchas bogʻliqdir. Biroq mavjud tadqiqotlarda yaylov yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilish jarayonidagi tashkiliy-institutsional oʻzgarishlarning yaxlit tizimli tahlili yetarli darajada yoritilmagan. Shu bois mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy boʻshliqni toʻldirishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yaylov yerlaridan foydalanish tizimini modernizatsiya qilish jarayonida yuz berayotgan tashkiliy-institutsional oʻzgarishlarni kompleks tahlil qilish maqsadida tizimli, institutsional va qiyosiy yondashuvlar qoʻllanildi. Tadqiqot davomida iqtisodiy-statistik tahlil usuli orqali yaylov resurslaridan foydalanish koʻrsatkichlarining dinamikasi oʻrganildi, normativ-huquqiy hujjatlar tahlili orqali esa mavjud boshqaruv mexanizmlarining institutsional asoslari baholandi. Shuningdek, xorijiy tajribalar bilan qiyoslash usuli asosida yaylovlarni boshqarishning ilgʻor amaliyotlari tahlil qilinib, natijalar mantiqiy umumlashtirish orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Oʻzbekistonning iqlim sharoitining keskin kontinental ekanligi janubiy hududlarning qurgʻoqchil hududda joylashganligi bir qator muammolarning kelib chiqishiga sabab boʻlmoqda. Bugungi kunda qishloq xoʻjaligining chorvachilik tarmogʻi toʻgʻridan toʻgʻri dehqonchilik tarmogʻiga uzviy bogʻlanganligi oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlashda hamda mamlakatning iqtisodiyotida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga aholining kundalik isteʼmol xarajatlarining 30 foizini goʻsht, sut va tuxum mahsulotlari tashkil etadi. Bu esa chorva ozuqalarning oʻrni alohida ekanligini koʻrsatib beradi.

Ayni paytda mamlakatimiz va mintaqada aholining chorvachilik mahsulotlariga boʻlgan talabi yildan yilga ortib bormoqda, uning taʼminoti yaʼni ozuqa bazasini yaxshilash yaylov yerlaridan samarali foydalanish masalasini hal etish har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mamlakatimiz tomonidan ushbu jabhada erkin bozor mexanizmi shakllantirilgani, koʻplab imtiyozlar hukumatimiz tomonidan taqdim etilgani natijasida yaylov yerlaridan foydalanish imkoniyati yaxshilanib bormoqda.

Yaylov yerlarining 2025 yil holatiga koʻra yaylov va pichanzorlar umumiy maydoni 21100 ming gektarni (umumiy qishloq xoʻjaligi maydonga nisbatan 47 foizini) tashkil etadi. Mamlakatimizdagi yaylovlar togʻ, togʻ-oldi hududlaridagi yer maydoni 21 foiz va choʻl zonalarida 79 foizni tashkil etadi. Oʻzbekistonda

mavjud yaylovlarni saqlash, yaxshilash va innovatsion texnologiyalardan keng koʻlamli foydalangan holda iqtisodiy samaradorligini oshirish bugungi dolzarb masalalardan biri boʻlib kelmoqda. Mamlakatimizning umumiy yer maydonining 47 foizi yaylov yerlari tashkil etadi bir qarashda bu yaxshidek koʻrinishi mumkin lekin aslida yaylovlardan foydalanish tizimida turli xil kamchiliklar sababli, yaylovlarda bioxilma-xillikka juda katta zarar yetkazilmoqda. Yaylovlarda bioxilma-xillikni tiklash uchun kamida 10-15 yil kerak boʻlib, bu albatta uzoq muddat hisoblanadi shu sababli ham yaylov yerlarida foydalanishda innovatsion yechimlar izlash talab etiladi.

**1-jadval**

**Oʻzbekiston Respublikasi yer fondining asosiy yer turlari boʻyicha taqsimlanish dinamikasi (1990–2025 yy., ming ga)**

| Yer turlari | yillar | | | | 2010 y. 2025 y. farqi+,- | 2010 y. 2025 y. farqi % |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 2000 | 2010 | 2020 | 2025 | | |
| 1. Ekin yerlar | 4 056,6 | 4073,1 | 4033,5 | 4 046,7 | -26,4 | **-0.7** |
| shu jumladan, sugʻoriladigani | 3 313,6 | 3315,9 | 3259,9 | 3 278,4 | -37,5 | **-1.1** |
| 2. Koʻp yillik daraxtzorlar | 352,9 | 347, | 403,8 | 455,1 | +108,1 | **31.1** |
| shu jumladan, sugʻoriladigani | 339,7 | 333,7 | 380,5 | 410,6 | +76,9 | **23** |
| 3. Boʻz yerlar | 80,7 | 82,7 | 83,7 | 83,6 | +0,9 | **1.1** |
| shu jumladan, sugʻoriladigani | 46,5 | 47,7 | 48,7 | 48,4 | +0,7 | **1.5** |
| 4. Pichanzor va yaylovlar | 22 263,4 | 20776,6 | 21118 | 21 264,2 | +487,6 | **2.3** |
| shu jumladan, sugʻoriladigani | 44,1 | 43,0 | 42,9 | 42,0 | -1,0 | **-2.3** |
| 5. Qishloq xoʻjalik yer turlari jami | 26 753,6 | 25280 | 25639 | 25 849,6 | +569,6 | **2.3** |
| shu jumladan, sugʻoriladigani | 3 743,9 | 3740,3 | 3732 | 3 779,5 | +39,2 | **1.1** |
| 6. Tomorqa yerlar | 642,9 | 692,7 | 726 | 741,5 | +48,8 | **7** |
| shu jumladan, sugʻoriladigani | 481,9 | 516,3 | 537,9 | 545,3 | +29,0 | **5.6** |
| 7. Oʻrmonzorlar va butazorlar | 1 511,9 | 3312,0 | 3588,9 | 4 760,6 | +1 448,6 | **43.7** |
| shu jumladan, sugʻoriladigani | 44,6 | 52,4 | 52,9 | 54,1 | -1,7 | **-3.24** |
| 8. Bogʻdorchilik va sabzavotchilik uyushmalarining yerlari | 8,5 | 7,6 | 7,2 | 7,2 | -0,4 | **-5.3** |
| shu jumladan, sugʻoriladigani | 7,2 | 6,7 | 6,2 | 6,2 | -0,5 | **-7.5** |
| 9. Meliorativ qurilish holatidagi yerlar | 79,3 | 74,1 | 68,9 | 68,1 | -6,0 | **-8** |
| 10. Boshqa yerlar | 15 414,1 | 15043,9 | 14862,4 | 13 465,3 | -1 578,6 | **-10** |
| **Jami yerlar** | **44 410,3** | **44410.3** | **44892,4** | **44 892,3** | +482,0 | **1.1** |
| **shu jumladan, sugʻoriladigani** | **4 277,6** | **4315.7** | **4329** | **4 385,1** | +69,4 | **1.6** |

Manba: yer fondi maʼlumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

1-jadval koʻrsatkichlaridagini maʼlumotlar asosida 2000–2025-yillarda Oʻzbekiston yer fondi tarkibi tizimli va funksional transformatsiyalar kuzatilganligi koʻrinib turibdi. Yaylov yerlari maydoni 2000–2010-yillarda 22,2 mln gektardan 20,7 mln gektargacha qisqargan boʻlsa, 2010–2025-yillarda 487,6 ming gektarga (2,3%) oʻsgan. Ushbu oʻsish davrida tabiiy tiklanish bilan ifodalanmaydi, balki "Boʻsh yerlar" va "Zaxira yerlari" toifalaridagi maydonlarning yaylov yerlari tarkibiga yer kadastri natijalari asosida yaylov toifasiga qayta tasniflanishi bilan chambarchas bogʻliq. Bu oʻzgarishlar chorvachilik klasterlari va fermer xoʻjaliklar uchun xomashyo bazasini mustahkamlab, yer resurslarini tizimli boshqarishda subyektlar masʼuliyati va hisobdorligini oshiradi.

Oʻrmon va butazorlar maydonining 1,4 mln gektardan 4,7 mln gektargacha (3,3 barobar) ortishi ekologik barqarorlik va yer resurslarini muhofaza qilish jarayonini ustuvorligini koʻrsatadi. Tomorqa xoʻjaligi yerlarining 1,7 barobar kengayishi agrar sohada aholi xoʻjaliklari va yirik bozor subyektlari oʻrtasidagi raqobatni kuchaytirib, manfaatlar oʻrtasidagi iqtisodiy muvozanatni yuzaga chiqaradi. Global iqlim oʻzgarishi davrida yaylovlarning tabiiy mahsuldorligi pasaygan holda maydonlarning ortishi ularning sifat koʻrsatkichlarini ifodalamaydi. Shu sababli kelgusida yaylov yerlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda faqat maydon koʻrsatkichlariga yemas yer unumdorligi, chorva yuklamasi va innovatsion tizimlariga asoslangan yangi iqtisodiy mexanizmlarni joriy etish zarur.

2-jadvaldagi maʼlumotlaridan koʻrishimiz mumkinki, umumiy yer fondida asosiy ulush qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yerlarga toʻgʻri keladi. Shunga koʻra, yaylov va boshqa qishloq xoʻjaligi yerlari agrar tarmoq barqarorligini taʼminlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Hududlar kesimida tahlil qilinganda, qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer maydonlari boʻyicha eng katta ulush Navoiy viloyati (6 548,7 ming ga) hissasiga toʻgʻri keladi. Bu holat viloyat hududining kattaligi, choʻl va yarim choʻl zonalarida joylashgan yaylov maydonlarining ulushi yuqoriligi bilan taʼkidlandi. Shuningdek, Qoraqalpogʻiston Respublikasi (4 303,5 ming ga) va Buxoro viloyati (2 352,7 ming ga) ham yuqori ulushga ega boʻlib, bu hududlarda chorvachilik tarmogʻi ustuvor ekanligini koʻrsatadi.

Oʻrmon fondi yerlari boʻyicha ham yetakchilik Navoiy viloyati (1 591,9 ming ga) va Qoraqalpogʻiston Respublikasi (624,9 ming ga) hissasiga toʻgʻri keladi. Bu yerlar asosan muhofaza va ekologik barqarorlikni taʼminlash vazifasini bajaradi. Tabiatni muhofaza qilish yerlari boʻyicha ham yuqori koʻrsatkichlar Navoiy viloyati (739,2 ming ga) va Qoraqalpogʻiston Respublikasi (198,9 ming ga) da kuzatiladi, jjarayonda shu hududlarda alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar mavjudligini anglatadi.

Zaxira yerlari nisbatan kam ulushni tashkil etgan boʻlsa-da, Surxondaryo viloyati (44,5 ming ga) va Qoraqalpogʻiston Respublikasi (132,8 ming ga) da qolganlariga nisbatan yuqori koʻrsatkich qayd etilgan. Ushbu yerlarni kelgusida

investitsion loyihalar yoki qishloq xoʻjaligi aylanmasiga kiritish imkoniyatiga ega resurs sifatida qaralishi mumkin.

**2-jadval**

**Respublika yaylov yerlarining taqsimlanishi (2025-yil 1-yanvar holati ming ga)**

| T/r | Hududlar nomi | Zaxira yerlari | Oʻrmon fondi yerlari | Tabiatni muhofaza qilish | Aholi punktlari ning yerlari | Qishloq xoʻjaligiga moʻljallangan yer maydonlari |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Qoraqalpogʻiston Respublikasi | 132,8 | 624,9 | 198,9 | 1,5 | 4 303,50 |
| 2 | Andijon | 1 | 4,5 | | | 15,5 |
| 3 | Buxoro | | 148,1 | 7,4 | | 2 352,70 |
| 4 | Jizzax | 0,4 | 114,3 | 20,3 | 0,4 | 557,9 |
| 5 | Qashqadaryo | 0,4 | 132,7 | 31,3 | 0,2 | 1 230,90 |
| 6 | Navoiy | 1,3 | 1 591,90 | 739,2 | 4,2 | 6 548,70 |
| 7 | Namangan | | 102 | | | 43 |
| 8 | Samarqand | 2,7 | 31,8 | | 0,9 | 703,1 |
| 9 | Surxondaryo | 44,5 | 66,3 | 3,6 | | 693 |
| 10 | Sirdaryo | | 1,4 | 0,1 | | 18,3 |
| 11 | Toshkent | 1,8 | 220,2 | 22,3 | 1,3 | 191,3 |
| 12 | Fargʻona | 2,7 | 0,4 | | | 5,6 |
| 13 | Xorazm | | 50,9 | 16,7 | | 41,4 |
| 14 | Toshkent sh | | | | | |
| **Jami** | | **187,6** | **3 089,40** | **1039,8** | **8,5** | **16 704,90** |
| **Umumiy yaylov yerlariga nisbatan %** | | **0.1%** | **15 %** | **5 %** | **0.03%** | **76 %** |

Manba: yer fondi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Aholi punktlari yerlari ulushi juda past boʻlib, umumiy yer fondida sezilarli ta’sir koʻrsatmaydi. Bu holat yaylov yerlarining asosan qishloq xoʻjaligi va tabiiy resurslar sifatida foydalanilayotganligini koʻrsatadi.

2025 yil holatini tahlil qilinganda respublika yaylov va qishloq xoʻjaligi yerlari tarkibida hududiy nomutanosiblik mavjud boʻlib, asosiy yer resurslari choʻl va yarim choʻl hududlarida joylashgan. Bu esa chorvachilikni rivojlantirish, yaylovlarning degradatsiyasini oldini olish, innovatsion agrotexnologiyalarni joriy etish va yer resurslaridan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirishni talab etadi.

3-jadval ma’lumotlaridan koʻrinadiki, 2005–2025 yillar oraligʻida respublika boʻyicha yaylov maydonlarining umumiy hajmi 21 114 mln gektardan 21 264 mln gektargacha kengaygan. Ushbu 164 ming gektarlik oʻsish surati hududlar kesimida noproporsional taqsimlangan boʻlib, asosiy miqdoriy koʻrsatkichlar yirik choʻl-yaylov mintaqalari hisoblangan Qoraqalpogʻiston Respublikasi (+774,2 ming yoki 1.7 % ga) va Navoiy viloyati (+596,7 ming yoki 1.3% ga) hissasiga toʻgʻri keladi. Tahlilli jarayonlar shuni koʻrsatadiki, 2020–2025 yillar

oralig'ida respublika miqyosida yaylovlarning 248 ming gektarga ortishi yer kadastrini raqamlashtirish va ilgari hisobga olinmagan zaxira erlarini yaylov toifasiga o'tkazish (inventarizatsiya) natijasidir. Ushbu jarayon chorvachilik klasterlari uchun erdan foydalanishning institutsional asoslarini yaratgan bo'lsa-da, maydonlar kengayishining asosiy qismi intensiv sug'oriladigan zonalardan tashqarida yuz berganligini kuzatish mumkin.

**3-jadval**

**Respublika yaylov maydonlarining yillar bo'yicha hududiy ko'rsatkichlari (ming ga)**

| T/r | Hududlar nomi | Yillar | | | | | 2020 y. 2025 y. farqi (+/-) | 2020 y. 2025 y. farqi (%) |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2005 | 2010 | 2015 | 2020 | 2025 | | |
| 1 | Qoraqalpog'iston Respublikasi | 4640,7 | 4697,5 | 5275,1 | 5175,6 | 5267,9 | 92,3 | 1.7 |
| 2 | Andijon | 21,2 | 21,3 | 21,3 | 21,1 | 19,8 | -1,3 | -6 |
| 3 | Buxoro | 2674,1 | 2597,2 | 2543,2 | 2558,1 | 2561,9 | 3,8 | 0.1 |
| 4 | Jizzax | 730,9 | 743,4 | 757,8 | 726,7 | 796,2 | 69,5 | 10 |
| 5 | Qashqadaryo | 1466,7 | 1457,2 | 1415,3 | 1406,8 | 1402,9 | -3,9 | -0.3 |
| 6 | Navoiy | 9137,5 | 8764,2 | 8745,6 | 8762,3 | 8876,3 | 114 | 1.3 |
| 7 | Namangan | 153,1 | 152,6 | 152,4 | 150,8 | 159,8 | 9 | 6 |
| 8 | Samarqand | 795,7 | 793,9 | 793,8 | 797,1 | 790,1 | -7 | -0.1 |
| 9 | Surxondaryo | 861,7 | 861,3 | 830,9 | 826,5 | 809,5 | -17 | -2 |
| 10 | Sirdaryo | 23,6 | 22,3 | 20,5 | 20,5 | 19,9 | -0,6 | -3 |
| 11 | Toshkent | 421,6 | 425,5 | 436,1 | 437,6 | 441,3 | 3,7 | 0.8 |
| 12 | Farg'ona | 24,5 | 23,5 | 23,5 | 23,4 | 9,5 | -13,9 | -59 |
| 13 | Xorazm | 162,8 | 110,1 | 110,1 | 109,3 | 109,1 | -0,2 | -0.2 |
| **Jami** | | **21114** | **20670** | **21125,6** | **21016** | **21264** | **248** | **1.2** |

Manba: yer fondi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Tahlil natijalariga ko'ra, sanoat zonalari va aholi punktlari tig'iz joylashgan hamda intensiv dehqonchilik rivojlangan hududlarda (Andijon, Farg'ona, Sirdaryo) yaylov maydonlarining muntazam qisqarib borish tendensiyasi mavjud.

Respublikamizda yaylov resurslaridan foydalanishni tartibga solishning huquqiy-iqtisodiy mexanizmlari O'zbekiston Respublikasining "Yaylov to'g'risida"gi Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-24-son va PF-15-sonli Farmonlari bilan belgilangan strategik yo'nalishlar asosida tubdan isloh qilinmoqda. Mazkur institutsional o'zgarishlar yaylov xo'jaligini ekstensiv yondashuvdan intensiv boshqaruv modeliga o'tkazishni ko'zda tutsa-da, sohadagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning ijro etilishi mexanizmlarida quyidagi fundamental-iqtisodiy ziddiyatlar va dolzarb muammolar saqlanib qolmoqda:

Birinchidan, yaylov erlariga boʻlgan mulkiy huquqlar va iqtisodiy manfaatdorlikning transformatsiyasi. Strategik hujjatlarda yaylovlarni muhofaza qilish vazifasi ustuvor etib belgilangan boʻlsa-da, amaliyotda yaylovdan foydalanuvchilarning er resursi sifatini yaxshilashga boʻlgan iqtisodiy ragʻbatlantirish tizimi mukammal emas. Er ijara munosabatlarining uzoq muddatli barqarorligi va foydalanuvchining kapital qoʻyilmalarini (rekultivatsiya, urugʻchilik) iqtisodiy himoyalash mexanizmlarining etarli emasligi resurslardan "ayovsiz foydalanish" xavfini keltirib chiqarmoqda.

Ikkinchidan, monitoring tizimida axborot asimmetriyasi va differensial rentaning hisobga olinmasligi. Soʻnggi meʼyoriy hujjatlarda raqamlashtirish va masofadan zondlash orqali nazorat oʻrnatish vazifalari qoʻyilgan. Biroq, yaylovning joriy biologik quvvati bilan unga qoʻyilayotgan iqtisodiy yuklama oʻrtasidagi bogʻliqlikni taʼminlovchi differensial ijara stavkalari mexanizmi ishlab chiqilmagan. Bu holat unumdorligi turlicha boʻlgan yaylov erlariga bir xil iqtisodiy talablar qoʻyilishiga, natijada past mahsuldor erlarda xoʻjalik rentabelligining tushib ketishiga yoki yuqori unumdor yerlarning haddan tashqari yuklama natijasida degradatsiyaga uchrashiga sabab boʻlmoqda.

Uchinchidan, ekologik-iqtisodiy xarajatlarni muammosi. Vazirlar Mahkamasining 126-sonli qarorida degradatsiyaga qarshi kurashish choralari belgilangan boʻlsa-da, yaylov resurslarining qadrsizlanishi natijasida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy zararlarni baholash va ularni xoʻjalik subyektlarining moliyaviy hisobotlarida aks ettirish metodologiyasi mavjud emas. Yaylovni "tabiiy boylik" tushunchasidan "iqtisodiy aktiv" darajasiga koʻtarish uchun zarur boʻlgan iqtisodiy-matematik modellarning etishmasligi sohada uzoq muddatli investitsion qarorlar qabul qilishni cheklamoqda.

Yuqorida tahlil qilingan meʼyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning samarali ijrosi nafaqat maʼmuriy nazoratni, balki har bir gektar yaylov maydonining individual iqtisodiy qiymatidan kelib chiqib boshqariladigan bozor mexanizmlarini joriy etishni taqozo etadi. Bu esa tadqiqotda taklif etilayotgan tabaqalashtirilgan ijara tizimi va raqamli monitoring modelining dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Mamlakatimiz qishloq xoʻjaligi sohasida yaylov xoʻjaligini samarali tashkil etish, avvalo, hududlarning tabiiy va iqlim sharoitlarini iqtisodiy jihatdan toʻgʻri baholashni talab qiladi. 4-jadval maʼlumotlariga koʻra, Oʻzbekiston yaylovlari balandlik hududlari boʻyicha keskin farqlanadi, bu esa ularning mahsuldorligi va iqtisodiy qiymatiga bevosita taʼsir koʻrsatadi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, respublika yaylovlarining asosiy qismi choʻl hududlariga toʻgʻri keladi (yillik yogʻin miqdori 300 mm gacha). Bu hududlar ekstremal iqlim sharoiti va qisqa vegetatsiya davri bilan xarakterlanadi, shu bois chorvachilikni rivojlantirishda suv inshootlari va qurgʻoqchilikka chidamli oʻsimliklarni madaniylashtirishga yoʻnaltirilgan investitsiyalarning samaradorligini oshirish talab etiladi.

**4-jadval**

### Oʻzbekiston Respublikasi yaylov yerlarining tabiiy-iqlim sharoitlari boʻyicha mintaqaviy tasnifi

| T/r | Mintaqalar | Dengiz sathidan balandligi, m | Yillik yogʻin miqdori, mm | Oʻrtacha harorat, °C |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Choʻl yaylovlari | 400–500 | 300 mmdan kam | +12…+18 |
| 2 | Adir yaylov yaylovlari | 1000–1200 | 300–400 mm | +10…+15 |
| 3 | Togʻ yaylovlari | 2500–2700 | 400–500 mm | +5…+10 |
| 4 | Yaylovlar | 2500–2700 | 500 mmdan ortiq | +2…+6 |

Manba: Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Adir va togʻ hududlarida yillik yogʻin miqdori nisbatan yuqori (300–500 mm) va harorat moʻtadil (+5…+15 °C) boʻlib, biomassa toʻplash imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq, yuqori togʻ (javlo) hududlarida past harorat (+2…+6 °C) oʻsimliklarning oʻsish davrini chegaralaydi. Ushbu holat yaylovlardan foydalanishning qatʼiy mavsumiy rejalarini ishlab chiqish zaruratini iqtisodiy jihatdan asoslaydi.

**5-jadval**

### Yaylov mintaqalari boʻyicha ozuqa hosildorligi va yer resurslaridan foydalanishning iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari

| T/r | Yaylov mintaqasi nomi | Maydoni, ming ga | Respublika yaylov fondidagi ulushi | Oʻrtacha hosildor-lik (s/ga, quruq oʻt) | 1 shartli bosh chorva uchun er ehtiyoji (ga/bosh) | 1 ga erning shartli iqtisodiy qiymati (ming soʻm/yil) |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Choʻl yaylovlari | 17 281,2 | 81,7% | 1,5-2,5 | 25 – 40 | 375-625 |
| 2 | Adir yaylovlari | 2 855,5 | 13,5% | 3,0-4,5 | 14 – 20 | 750-1 125 |
| 3 | Togʻ yaylovlari | 698,0 | 3,3% | 5,0-10,0 | 6 – 12 | 1 250-2 500 |
| 4 | Yaylovlar | 317,3 | 1,5% | 10,0-15,0 | 4 – 6 | 2 500-3 750 |
| **Jami** | | 21 152,0 | 100% | | | |

Manba: Milliy statistika qoʻmitasi maʼlumotlari asosida muallif ishlanmasi.

Jadvaldan koʻrinib turibdiki, Respublika yaylov fondining mintaqalararo taqsimoti uning iqtisodiy foydalanish darajasini belgilab beruvchi asosiy omil hisoblanadi. Tahlillarimiz shuni koʻrsatadiki, yaylovlarning 5-jadval maʼlumotlariga koʻra, jami 21,1 mln gektar yaylov maydonining asosiy qismi, yaʼni 81,7 foizi choʻl mintaqasida joylashgan boʻlib, ularning oʻrtacha hosildorligi (1,5–2,5 s/ga) boshqa mintaqalarga nisbatan eng past koʻrsatkichga ega. Bu holat yaylov oʻtining biologik massasi mintaqalar kesimida keskin farqlanishini, xususan, toʻqay va togʻ yaylovlarida mahsuldorlik choʻl hududlariga qaraganda 6-10 barobar yuqori ekanligini isbotlaydi. Mazkur farq chorvachilik subyektlarining ozuqa bazasini shakllantirishda hududiy omillarni va har bir mintaqaning tabiiy potensialini inobatga olish zarurligini koʻrsatadi. Chorvachilik ilmiy-tadqiqot institutining rasmiy meʼyorlari asosida bir shartli bosh chorva

molining yillik ozuqa ehtiyoji tahlil qilinganda, yaylov sig‘imi va unga bo‘lgan haqiqiy ehtiyoj o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlandi. Hisob-kitoblarga ko‘ra, cho‘l mintaqasida bir bosh qoramolni yil davomida boqish uchun 25–40 gektar yaylov maydoni talab etilsa, mahsuldorligi yuqori bo‘lgan yaylovlarda bu ko‘rsatkich atigi

4–6 gektarni tashkil etmoqda. Bu esa yaylovlardan foydalanishning iqtisodiy yuklamasini belgilashda "shartli bosh/gektar" nisbatini qo‘llash, yaylov degradatsiyasining oldini olish va chorva mollarini oziqlantirish samaradorligini oshirishning fundamental asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Har bir mintaqaning hosildorlik darajasi uning shartli iqtisodiy qiymatida o‘z aksini topadi. 1 gektar yaylov erining yillik iqtisodiy salohiyati mintaqaga qarab 375 ming so‘mdan 3,7 mln so‘mgacha o‘zgarishi, yaylovlardan foydalanishda tabaqalashtirilgan iqtisodiy mexanizmlarni qo‘llashni taqozo etadi. Mazkur iqtisodiy qiymat ko‘rsatkichlari yaylov ijarasi stavkalarini optimallashtirish, er solig‘ini adolatli belgilash va xo‘jaliklar rentabelligini oshirish uchun ilmiy asos bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, yaylovning iqtisodiy qiymati uning maydoniga emas, balki undan olinadigan ozuqa birligining bozor bahosidagi ekvivalentiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liqdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatmoqdaki, yaylov erlaridan foydalanish samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini ishlab chiqishda «hududiy ixtisoslashuv» tamoyiliga amal qilish lozim. Ya’ni, cho‘l hududlarida resurslarni tejovchi texnologiyalarni, adir va tog‘ hududlarida esa yaylovlarni raqamli monitoring qilish va ijara munosabatlarini takomillashtirish orqali sohaning barqaror iqtisodiy o‘sishiga erishish mumkin.Bugungi kunda mavjud yaylov yerlaridan foydalanish tizimini takomillashtirishda bir qancha asosiy yo‘nalishlarni belgilab olish lozim. Bunda:

istiqbolda yaylov yerlaridan foydalanishda ekologik tizimni (respublika, viloyat, tumanlar kesimida) hamda cho‘l, tog‘ oldi hududlar bo‘yicha to‘liq elektron ma’lumotlar bazasini shakllantirish; respublika, mintaqa, tuman chizma (loyiha)larini ishlab chiqish;

aholini o‘zini o‘zi band qilishi hamda dehqon xo‘jaliklariga doimiy va vaqtincha foydalanish huquqi asosida yaylov yerlarini berish;

yaylov yerlaridan foydalanishda xo‘jalik yuritishning samarali turlarini shakllantirish;

xo‘jalik faoliyatida o‘z-o‘zini moliyalashtirish va o‘z-o‘zini boshqarish;

yaylovlardan foydalanishda ekologik talablarga rioya qilish;

yaylovlarda chorva mollarini boqish tartibini va degradatsiyani bartaraf qilish;

yaylovlardan foydalanishni tizimini zamonaviy boshqaruv tizimiga o‘tkazish.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘tkazilgan tahlillar natijasida O‘zbekiston Respublikasi yer fondi tarkibida yaylov yerlarining yillar davomida o‘zgarishi, ularning hududiy taqsimlanishidagi

nomutanosibliklar hamda tabiiy-iqlim sharoitlariga kuchli bogʻliqligi mavjudligi aniqlandi. Yaylov mintaqalari boʻyicha resurslardan foydalanish darajasi hududlar kesimida bir xil emasligi, ayrim mintaqalarda esa yer yuklamasining ortib borishi kuzatilmoqda.

Shuningdek, yaylov mintaqalari boʻyicha ozuqa hosildorligi va iqtisodiy samaradorlik koʻrsatkichlari oʻrtasida bevosita bogʻliqlik mavjudligi aniqlanib, resurslardan foydalanish samaradorligi nafaqat tabiiy sharoitlar, balki boshqaruv va tashkiliy mexanizmlarga ham bogʻliqligi asoslandi. Bu holat yaylovlardan foydalanishda kompleks yondashuv zarurligini koʻrsatadi.

Tadqiqot natijalariga koʻra, yaylov yerlarini boshqarishda mintaqaviy differensial yondashuvni joriy etish, yaylov yuklamasini ilmiy asoslangan normativlar asosida tartibga solish, past hosildor hududlarda yaylovlarni tiklash tadbirlarini kuchaytirish hamda raqamli monitoring tizimlarini keng joriy etish taklif etiladi. Ushbu chora-tadbirlar yaylov resurslaridan samarali foydalanish va ularning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI**

1. Oʻzbekiston Respublikasi Yer kodeksi. – Toshkent, 2021.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining yaylovlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid farmon va qarorlari.

3. Gʻulomov S.S., Xushmatov N.S., Umurzakov U.P. Agrar iqtisodiyot. – Toshkent: Fan, 2019.

4. Narbaev Sh.K., Yaxyayev M.M. Yaylov xoʻjaligi iqtisodiyoti. – Toshkent, 2020.

5. Havstad K. Economic valuation of rangeland ecosystem services. – USA, 2015.

6. Stafford-Smith D.M. Adaptive management of rangelands under climate change. – 2018.

7. Soussana J.F. Grassland carbon sequestration and climate policy. – 2017.

8. Abdiev M. Rangeland management and rotational grazing systems in Central Asia. – Kazakhstan, 2020.

9. Toktomambetova A. Community-based pasture management model. – FAO Report, 2019.

10. Z.Kazakova, I.Isrofilova, “Chorvachilik tarmogʻini rivojlantirishda islohotlarning tutgan oʻrni”., Международная научно-практическая конференция. 14-15 окабря. 2021 г.

11. Nazarova Z. Mathematical-economic modeling of pasture efficiency. – 2022.

12. Mamatqulov B. Ecological restoration of degraded pastures. – 2021.

13. Oʻzbekiston Respublikasi Davlat statistika qoʻmitasi ma’lumotlari (1990–2025 yy.).

14. FAO (Food and Agriculture Organization). Rangeland management guidelines. – Rome, 2020.

2026-yil, aprel. №4-son.

**Mas’ul muharrir:** Beglayev Uchqun
**Musahhih:** Boltayev Nurali
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar koʻchirib bosilganda “Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida koʻrsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas’ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: https://www.agrobiznesjournal.uz

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari boʻyicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xoʻjaligi fanlari boʻyicha “Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar roʻyxati”ga kiritilgan.

“Agrobiznes, fan va texnologiyalar” ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi boʻyicha roʻyxatdan oʻtkazilgan. **Litsenziya raqami:**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,**
**Universitet koʻchasi, 2-uy**